# INGLIZ ERTAKLARIDAGI “YAXSHILIK/YOMONLIK” BINAR OPPOZITSIYASINING LINGVOPRAGMATIK JIHATLARI XUSUSIDA

**O.M.Yusupova**
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich (DSc) doktoranti
oo.yusupova@pf.fdu.uz

***Annotatsiya***

*Mazkur maqolada ingliz xalq ertaklaridagi “yaxshilik” va “yomonlik” binar oppozitsiyalarining lingvopragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida ertak qahramonlarining nutqiy strategiyalari, lisoniy vositalarning adresatga ta’sir ko‘rsatish kuchi hamda kontekstual ma’nolar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada lisoniy birliklarning axloqiy tushunchalarni shakllantirishdagi pragmatik ahamiyati aniqlangan va ingliz ertaklaridan olingan misollar ishning nazariy qiymatini oshirishga xizmat qilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *binar oppozitsiya, lingvopragmatika, ingliz ertaklari, yaxshilik va yomonlik, kontekstual ma’no, nutqiy akt va aksiologik baho.*

## KIRISH

Lingvistik pragmatika – real muloqot jarayonlarida lingvistik belgilarning xatti-harakatlarini o‘rganish. Bundan ko‘rinadiki lingvistik pragmatika tilni tizim sifatida emas, balki faoliyat sifatida o‘rganadi. Agar tilning boshqa sohalari “Bu gap nima degani?” kabi savolga javob izlasa, pragmatika “Bu gap bilan so‘zlovchi nima qilmoqchi?” degan masalani yo‘ritadi. Bunda ma’no so‘zning lug‘aviy tarkibida emas, balki *kontekst* + *maqsad* + *vaziyat* uchligida shakllanadi. “Lingvistik entsiklopedik lug‘at”da mazkur atamaga quyidagichga ta’rif berilgan: “Pragmatika – semiotika va lingvistikaning nutqdagi lisoniy belgilar faoliyatini o‘rganuvchi tadqiqot sohasi” [5]. Demak, mazkur yo‘nalish muloqotning ko‘rinmas qatlamlarini – so‘zlovchining ichki maqsadi va tinglovchining o‘sha maqsadni to‘g‘ri interpretatsiya qilishga tayyorligini o‘zaro aloqadorlikda tadqiq etadi. Bu jarayonda kommunikativ samaradorlikka erishish uchun qo‘llaniladigan turli nutqiy unsurlar, jumladan taktik yondashuvlar, bilvosita ifoda usullari hamda tilning o‘yin xarakteridagi imkoniyatlari asosiy tahlil predmeti bo‘lib xizmat qiladi.

Lisoniy birliklarning lingvopragmatik xususiyati deganda, tildagi so‘z va iboralarning shunchaki lug‘aviy ma’nosi emas, balki ularning muayyan vaziyatda, ma’lum bir maqsad bilan va tinglovchiga ta’sir o‘tkazish uchun qanday qo‘llanishi tushuniladi. Ertaklarda yaxshilik va yomonlik oppozitsiyasi aynan mana shu nutqiy vaziyatlar, qahramonlarning niyatlari va ularning so‘zlari tinglovchida uyg‘otadigan hissiyotlar orqali quriladi.

Ingliz ertaklarida yaxshilik va yomonlik ko‘pincha personajlarning nutqiy aktlari orqali namoyon bo‘ladi. Yaxshilik odatda va’da berish (promising), duo qilish/yaxshi tilak (blessing) hamda yordam taklif qilish orqali ifodalanadi. Ijobiy qahramonning nutqi odobli, kamtarin va samimiy bo‘ladi.

*“Jack gave the old man his hand, and promised that in the morning he would venture his life to free the lady”*. (“Jack The Giant-Killer”)

Mazkur misolda *promising* yani *vada berish* orqali yaxshilik anglashiladi. Ingliz ertaklarida ijobiy qahramonning va’dasi uning so‘zi va amali birligini anglatadi. Bu “yaxshilik” tushunchasining pragmatik asosi bo‘lgan *“ishonchlilik”*, ya’ni *reliability* prinsipini yuzaga chiqargan. Qolaversa, misolda istakning kuchayishi ham kuzatiladi. Jek shunchaki “yordam berishga vada bermaydi”, u o‘z niyatining jiddiyligini lisoniy birliklar orqali kuchaytiradi. Misoldagi *“...venture his life...”* (o‘z hayotini xavfga qo‘yish) iborasi nutqning illokutiv kuchini (ta’sir darajasini) maksimal darajaga ko‘tara olgan. “Yaxshilik” bu yerda oddiy yordam emas, balki o‘zini qurbon qilish darajasidagi oliyjanoblik sifatida namoyon bo‘ladi. Pragmatik jihatdan bu ertakning tinglovchi yoki o‘quvchisida qahramonga nisbatan mutlaq ishonchni paydo qiladi.

“Tom Hickathrift” nomli ingliz ertagidan olingan quyidagi parchada “promise” (va’da berish) kelajakda biror ishni bajarish majburiyatini emas, balki tasdiqlash, ishontirish funksiyasini bajarmoqda.

*“...but Mr. Hickathrift, and he was held in due respect I promise you”.*

Mazkur parchadagi “I promise you” konstruksiyasi orqali ertakchi ijobiy qahramonning ijtimoiy mavqeyini va ezgulik sifatlarini haqiqat sifatida tasdiqlaydi. Bu esa matnning illokutiv kuchini oshirib, kitobxonda qahramonga nisbatan hurmat, ishonch hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yomonlik esa ko‘pincha vadasida turmaslik (breaking promises), la’natlash (cursing), tahdid qilish (threatening) yoki aldov (deception) orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, “The Three Little Pigs” ertagidan olingan misolda bo‘rining quyidagi nutqi to‘g‘ridan-to‘g‘ri pragmatik tahdidni bildiradi.

*“I’ll huff and I’ll puff and I’ll blow your house down!”*

Bu yerda bo‘rining nutqi illokutiv kuchga ega bo‘lib, yomonlikning pragmatik ifodasi sifatida “threat” (tahdid) nutqiy aktini bajaradi.

Yana bir ingliz ertagi “Molly Whuppie”da ham *kill* so‘zi tahdidning kuchli darajasini ifodalaydi.

*“The woman said: “I can’t do that, as my man is a giant, and he would kill you if he comes home.”*

“Mr.Fox” deb nomlangan ingliz ertagida yomonlik tushunchasini ifodalovchi ko‘plab lisoniy birliklar uchraydi. Quyidagi misolda esa bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.

*“But it was tightly fixed, and would not come off, so Mr. Fox cursed and swore, and drew his sword, raised it, and brought it down upon the hand of the poor lady”.*

Mr.Fox obrazi misolida ko‘rinadiki, salbiy qahramon nutqi faqat vayron qilish (destruction) strategiyasiga yo‘naltirilgan. Muallif Mr.Foxning harakatlarini tasvirlash orqali kitobxonda qo‘rquv va g‘azab hissini uyg‘otadi. Bu yomonlikning pragmatik funksiyasi bo‘lib, o‘quvchini ijobiy va salbiy tomonlarni qat’iy ajratishga, binar oppozitsiyani his qilishga undaydi.

## XULOSA

Ertaklardagi yaxshilik va yomonlik tushunchalari shunchaki leksik birliklar orqali emas, balki qahramonlarning nutqiy strategiyalari orqali namoyon bo‘ladi. Ijobiy qahramonlar uchun va’da berish, yaxshi tilak nutqiy aktlari xos bo‘lsa, salbiy obrazlar nutqi tahdid va la’natlash aktlar bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, lisoniy birliklar ertakda shunchaki voqeani bayon qilmaydi, balki tinglovchida qahramonga nisbatan aniq bir munosabatni – emotsional perlokutiv effektni shakllantiradi. Umuman olganda, ingliz xalq ertaklaridagi lingvopragmatik birliklarni o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi namunalarining lisoniy qurilishi orqali jamiyatning axloqiy qadriyatlari va kommunikativ xulq-atvor normalarini tushunishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Briggs K. British Folk-tales and Legends. – London and New York, 2002.
2. Joseph J. English fairy tales. – Pennsylvania: Pennsylvania State University, 2005. – 169 p.
3. Joseph J. More Celtic Fairy Tales. Illustrated by John D.Batten: – London: David Nutt, 1894. – 267 p.
4. Joseph J. More English Fairy Tales. Illustrated by John D. Batten. – London, David Nutt, 1894. – P.206.
5. Норман, Б. Ю. (2009). Лингвистическая прагматика (на материале русского и других славянских языков): курс лекций/БЮ Норман.
6. Yusupova O.M. On verbs expressing evil action in Engliz and Uzbek household tales // “International multidisciplinary journal for research & development”. ISSN: 2394-6334. https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd. Volume 11, issue 11, 2024. – P.58-60. [SJIF Impact factor – 7.854].
7. Yusupova O.M. O‘zbek va ingliz ertaklaridagi yovuzlik leksemalarining semantik tahlili xususida // “Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari”. https://worldlyjournals.com. 1-iyul 2024. – B.345-347.
8. Ganiyeva D.A., Yusupova O.M. Ingliz va o‘zbek ertaklarida ezgulik va yovuzlik leksemalarining semantik xususiyatlari // IV International scientific and practical conference on the topic: “Current problems of modern linguistics and an innovative approach in teaching foreign languages”. October 25, 2023. – P.316-321.